

OMINA SHENLIKO'G'LI IJODIDA HAYOTIY VA BADIY HAQIQAT

Toshpo'latova Gulsevar Akbar qizi

ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 1- kurs talabasi

qiyomiddinxudoyberdiyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7953067>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turk yozuvchisi Omina Shenliko'g'li ijodidagi hayotiy va badiiy haqiqat masalasi ko'tarilgan bo'lib, kommunistik davr va hozirgi kundagi illatlar - johillik, hasad, yaxshilik, matonat va shu kabi g'oyalarning badiiy talqini ilgari surilganligi, yoki yozuvchi ijodidagi e'tiqodning o'rni tahlilga tortilgan bo'lib, adiba bu asarlari orqali kitobxonlarga nima bermoqda kabi savollarga javob berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar. Omina Shenliko'g'li, romanlari, e'tiqod, axloqiy fazilat va illatlar talqini.

Kirish. Har bir millat va davr o'zining yorqin yozuvchilari va adiblariga ega. Yigirma birinchi asrda turk adabiyotida salmoqli ijod qilayotgan turkiyalik adiba Omina Shenliko'g'li ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ijodida iymon, e'tiqodning o'rni yuksakligi bilinib turadi. "E'tiqod har qanday tafakkurning ibtidosi emas, balki gultojidir",- degandi Gyote. [1, 26]. Bir xil yozuvchilar qahramonlarini har turli qiyofada tasvirlaydilar. Ba'zi asarlardagi qahramonlar esa e'tiqodlari tufayli ham mashhur bo'ladilar. Aynan shu jihat turk adibasi Omina Shenliko'g'li ijodida uchraydi.

Manbalar tahlili. Bunga misol qilib adibaning "Iskanja" romanini keltirishimiz mumkin. Bu asarda bilimsizlik, kommunistik g'oyalarning hayotdagi o'rni yoritilgan bo'lib, mutaassib inson bilan hech qachon tortishmaslik kerakligi, yoki dinsizlik, agar shartlashuv bilan birlashsa - o'z jigarining terisini qo'shiq tinglab shiladigan holga kelib qolishi aytib o'tilgan bo'lib, bundan tashqari Alloh xohlagan narsa bo'lishi, sabr, matonat, vijdon, sotqinlik, aka - uka, farzand va ota - ona munosabatlari ham yoritilgan asardir. Xalq orasida yurgan "darxtning g'ovagiga qurt tushadi" degan naql bejizga aytilmaganligini isbotini ham ushbu asarda topishimiz mumkin, ya'ni o'z bilimiga, fikrlashiga ega bo'lmagan odamlarning ongiga har xil kommunistik g'oyalarni, fikrlarni kiritish osonroqligi eslatib o'tilgan.[2. Omina Shenliko'g'li "Iskanja" romani].

Yoki adibaning "Johiliston kelini" [3] nomli asariga to'xtalsak, unda johillikning nimalarga qodirligi, naqadar og'ir kulfat ekanligi va u qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida, bu dunyoda baxtdan bebahra qolgan ayol - qizlarning hayoti misolida hikoya qilingan. Ilmsiz inson, jamiyat qayoqqa qarab ketayotganini bilmayotgan podaga o'xshaydi. "Buni qarang, ilm bo'lmay turib, madaniyat ham, go'zal axloq ham bo'lmas ekan." (3, 128) . Hozirgi zamonamiz, jamiyatimiz shunday razil bo'lyaptiki, nima ayb, xato avvalgilarning bo'yniga qo'yib, o'zlarining gunohlarini yuvgandek bo'lishyapti. Yozuvchi ham ushbu gap misolida buni tasdiqlagan: "Qancha jaholat bo'lsa, hammasini ajdodlarimizning zimmasiga yuklashadi. Ota - bobolarimiz shunday qilishgan, deb qo'ya qolishadi ." (3, 133). Nafaqat erkaklar ayollarni, balki ayollar ham ayollarni qiynashyapti. Bu asarni bugungi kun bilan bog'laydigan bo'lsam , bugungi kunda shunaqangi ayol-qizlarimiz borki, hammaga hasad ko'zi bilan qaraydi, hech qachon yaxshilikni o'ylamaydi, hamma joyda o'zining manfaatini ko'zlaydi , alal-oqibat, baxtsiz holatga kelib qoladi. Ba'zida insonlarning achchiq qismati bizga saboq bo'ladi. Nega ba'zida inson mulohaza qilmaydi, o'zgalar bergan keraksiz maslahatlarga quloq tutishadi amalda bajarishadi, oqibatini o'ylab

ham ko'rishmaydi. Ushbu asarda nafaqat kichkina, balki ulkan bir shaharni xarob qiladigan johiliyat va bilimsizlik qoralangan. Bu asar orqali insoniyat tomonidan qilinayotgan xatolar, muammolar ochiq ravishda ko'rsatibirilgan. Ushbu asarda yana gendr tengligi masalasi ko'tariladi, bu masala ko'plab turkiy xalqlar o'rtasida muhokamalarga sabab bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Bunda jaholatning ilk qurbonlari sifatida bilimsiz o'jizalar, ya'ni xotin-qizlarimiz olib chiqilgan. Yozuvchi xulosa sifatida ushbu gaplar bilan asarni yakunlaydi: "Bizni madaniyatga olib keldik deb aldashgani, odamlarimizni johillashtirishgani haqida o'yladim.... Qishloqlarda ayollarni kaltaklaydiganlar, shaharda esa ham kaltaklab, ham sotadiganlar qaysi madaniyatning mahsuli?.. Qachonki, jaholat tufayli bir insonga zulm qilinayotganligini ko'rsam, sizni eslayman, ey, insoniylikni chiritganlar!". (3, 179). Bu asar qishloqdagi bir qizning maktubi asosida yozilgan bo'lib, yozuvchi hatto o'sha qishloqqa ham borib yashagan. "Shunday dardlar borki tasallisi faqat iymondandir"[4. "Imomning maneken qizi", 45].

Omina Shenliko'g'lining yozish usuli odatda hayotiy ibrat usulidir. Xususan, ko'pchilik kitobsevarlar uchun tanish bo'lgan "Imomning maneken qizi" asari ham juda katta ibrat darsini o'tavchi asarlar sirasidandir. "Vijdon azobi" asari ham aynan ibratlarga, iymonimizni mustahkam qilish uchun talay ogitlarga olishimiz mumkin bo'lgan ibratlarga boy bo'lgan asar hisoblanadi. Bu asar maktublardan ibort. Maktublarning barchasi turlicha, bir-biriga o'xshamas. Dardlar turlicha-yu, ammo fikr qilib qarasangiz, barining da'vosi bitta, bu ham bo'lsa iymondandir. Asarda berilgan maktublar jamiyatning turli kamchiliklarini, illatlarini ham ochib berishga qaratilgan. bulardan, ichkilikbozlik, xotinbozlik, g'iybatchilik va hokazolar. Iymonimiz yo'qligidan biz vijdon azobiga qolamiz, lekin vijdonimiz borligi ham bir yutuq. Muallif ta'kidlaganidek, pushaymonlik tavbaning talablaridandir. Muhimi, inson xato qilganligini anglay olishi va buni takrorlamasligidir. Farzandlarimizga go'zal dinimizdan go'zal tarbiya beraylik. Zero, bu ishni boshqalar, boshqacha talqinda o'z foydalari uchun bajarib olishmasin. Bilmsiz insonning ongi qanchalik tez o'zgarishini quidagi misol orqali ham bilib olishingiz mumkin: "-- Alloh rostdan bor bo'lsa, qani menga ko'rsat?- Qanday shaklda? "-Shayton olovdan yaratilgan bo'lsa, nega jahannamdan qo'rqadi, ikkalasi ham o'tdan yaralgan - ku?" "Yuzingizga tushgan tarsaki bunga javob bo'la oladi. Bir shapoloq tarsakidan so'ng nimani his qilasiz albatta og'riqni, vaholangki, og'riqni borligiga ishonasiz, u holda menga og'riqni ko'rsatingchi, qayerda, uning shakli qanaqa? Bu birinchi savolga javob bo'la oladi, biz Allohni ko'rishga qodir bo'lmasakda, his qilamiz, seni yuzinnga urgan qo'lim teridan yaralgan, seninng yuzing ham teridan yaralgan. Ikalasi ham teridan yaratilgani bilan, yuz og'riqni his qiladi, bu ikkinchi savolga javob bo'ladi. Shayton va jahannam olovdan yaratilgan bilan Allohning xohishi bilan jahannam shayton uchun eng og'riqli joydir"(189-bet). Mulohaza qilib aytadigan bo'lsam, o'sha davrda ham bugungi kunda ham ilmsiz insonlar pand yegan, chunki shu savollarga ishonish emasyuqoridagidek javob berishgabda edi, bunaqangi manqurtlar ko'paymagan bo'lar edi."Jaholatning yagona qo'rquvi ayoldir. Chunki ayol o'rgansa, farzandlariga ham o'rgatadi. Shunday ekan, ayolga ilm berish jamiyatga ilm berishdi." [5. Shayx Ali Tantoviy. "Ey qizim". 6-bet]

"Imomning maneken qizi" asarining xotimasiga toxtalsak, Fotima dugonalarini hidoyat etib, o'zi esa olgan bilimlari, go'zal tarbiyasi, benuqson, mehribon, dinimiz, islomimiz hech

qachon foydasiz bo'lmashini, aksincha, qora zulmatda adashib qolganimizda yo'limizni yorituvchi to'lin oy bo'lishini fahmlab, qalbi daryo va shavqatli ota - onasining yoniga qaytadi. Turkiyalik mashhur yozuvchi Omina Shenliko'g'li qalamiga mansub "Imomning maneken qizi" asari ayollarning jamiyatda o'z o'rnini topishda hamda ma'naviy qoloq bo'lib qolmasligi uchun ilmi bo'lishning ahamiyatini yaqqol ko'rsatib beruvchi eng sara asarlardan biridir.

Men bu asarni mutolaa qilib rosti, o'ta ta'sirlanib ketmadim. Menga asar ustiga qurilgan g'oyalar qiziqroq tuyuldi. Undagi ilk g'oya inson qanchalik atrofidan iymon bilan o'ralmasin undagi yovuzlik yo'qolib qolmaydi va u doim isyonga tayyor. Ikkinchi g'oya esa inson uchun farzand hayotida yo mukofot, yo sinov, yo halokatdir va bu mutlaq o'sha insonning tarbiya uchun tanlagan yo'liga bog'liq. Asarda juda kop islomni bilmagan va tushunmagan insonlar duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar ko'rsatib o'tib ketilgan: uydan qochish, aldanish, asliyatini o'zgartirish... Ammo islom qanchalar go'zal. Agar tavba qilsang, tushunsang, anglasang sen yana qayta ulug'lanasan. Asarda juda ko'p ajoyib fikrlar bor. Lekin asarni yakunlagach shu fikrlar yodimga keladi: "Meni menda demang, menda emasman, Bir men bordir menda mendan ichkari"(Rumiy). Bu bilan nima demoqchi, har bir insonning qalbida baribir bir men yashaydi. lekin u o'zi emas, u har doim isyonga tayyor, bu parcha orqali shu eslatib o'tilgan.

Jamiyatda Fotimalar ko'pdir, ammo xursand bo'la olamizki, Yoqub imomdek otalar biz uchun chinakam Fotimalarni tarbiyalay olishadi. Bu asar orqali yozuvchi o'sha davr Turkiyadagi ahvol, hamma Yevropaga taqlid qila boshlagani, jins o'zgartirishlar bular og'riqli muammolar edi. Asar juda yaxshi yozilgan deb o'ylayman. Omina Shenliko'g'li o'z diniga oid asarlar yozadi.

Xulosa. Adiba asarlariga xos quyidagi badiiy jihatlarni qayd etish mumkin:

1. Omina Shenliko'g'li asosan axloq masalalarini yoritadi.
2. Har bir axloqiy muammo imkon qadar ta'sirli hayotiy haqiqat bilan beriladi.
3. Asarlarida badiiy asar uchun zarur unsurlar: intriga, konflikt, qahramonlar ruhiyatining badiiy dalillanishi kabilar ta'sirli lavhalar bilan beriladi.
4. Adiba asarlarining muhim bir jihati – ularning sentimental-hayotiy yo'nalishda tasvir etilishidir.

References:

1. Гёте Иоганн Вольфганг. Ҳикматлар. Т.: "Маънавият". 2010. – 112 б.
2. Омина Шенликўғли. Исканжа. Роман. "Ilm ziyo zakovat". 2021. – 224 б.
3. Омина Шенликўғли. Жоҳилистон келини. Роман. "Noshirlik yog'dusi". 2021. – 160б.
4. Омина Шенликўғли. "Имомнинг манекен қизи". Қисса. "Азон китоблари" нашриёти. 2021. 172 б.
5. Шайх Али Тантовий. "Эй қизим". Т.: "Trust and support ". 2022 – 160 б.